

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

IMAGINARY SOURCES OF SUFI TEACHINGS

Yokubov Sukhrob Firdavsovich

Doctoral student of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article analyzes the ideological and source foundations that have played an important role in the formation and development of the doctrine of Sufism. In particular, the role of the Holy Quran and hadiths in Sufism, the spiritual and moral essence of such concepts as ilmi laduniy, dhikr, repentance, asceticism, trust in Allah, and riyozat are highlighted. Also, the lifestyle of the Prophet Muhammad (peace be upon him) and his companions is interpreted as a criterion for mystical perfection. The author scientifically substantiates Sufism as an integral part of the Islamic religion and its teachings that lead a person to spiritual purification and perfection.

Keywords: Sufism, the Holy Quran, hadith, remembrance, knowledge of the world, repentance, asceticism, trust, asceticism, perfect human being, spiritual purity.

TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI

Yokubov Suxrob Firdavsovich

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan g'oyaviy va manbaviy asoslar tahlil qilinadi. Xususan, Qur'oni Karim va hadislarning tasavvufdagi o'rni, ilmi laduniy, zikr, tavba, zuhd, tavakkul hamda riyozat kabi tushunchalarning ma'naviy-axloqiy mohiyati yoritib beriladi. Shuningdek, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) va sahobalarning hayot tarzi tasavvufiy kamolot mezoni sifatida talqin qilinadi. Muallif tasavvufni islom dinining ajralmas qismi sifatida asoslab, uning insonni ruhiy poklanish va komillikka yetaklovchi ta'limot ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Qur'oni Karim, hadis, zikr, ilmi laduniy, tavba, zuhd, tavakkul, riyozat, komil inson, ma'naviy poklik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N30>

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, uning oziqlanish manbalari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Bunday manbalarga misol qilib Qur'on, hadis, zikr, zuhd va tavakkul, riyozat kabilarni misol qilsak bo'ladi.

Tasavvuf ta'limotining asosiy manbai Qur'on hisoblanadi. Jahon xalqlari falsafasi, ma'naviyati, madaniyati asosida u qaysi xalq bo'lishidan qat'iy nazar, u yoki bu muqaddas kitob, ya'ni Zabur, Tavrot, Injil yoki Qur'on g'oyalariga tayanish yotadi. Shu asosda har bir xalq madaniyati va ma'naviyati asosini Qur'on g'oyalari tashkil etadi. Insonni pok yashashga undash, nafsni jilovlash, Allohning zoti va sifatlarini bilish, Allohning birligi va borligi, Muhammad (s.a.v) uning oxirgi elchisi ekanligi farishtalarning qiyomat, jannat va do'zaxning, o'lgandan so'ng tirilib savol-javobdan o'tish va shu asosda insonning mangu hayotdagi o'rni belgilanishiga ishontirish Qur'onning asosiy g'oyalari hisoblanadi. Qur'on uslubi o'ziga xos bo'lib, unda o'rni bilan payg'ambarlar hayoti ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Gunohlar tufayli azoblanishdan ogohlantirish, qo'rqitish, Alloh rahmatidan umidvor bo'lishiga undosh Qur'on uslubida o'ziga

xos tarzda bayon qilinadi. Birgina shariat amallarini bajarish bilan cheklanib qolmay, ruhni poklash, o'zni tanish orqali Yaratuvchini bilish, haq dargohiga maqbul va loyiq tarzda yashash Qur'onda olg'a surilgan asosiy g'oya hisoblanadi. «Islom madaniyatining Makkasi va barcha mustaslam xalqlarning nurafshon ramzi Qur'oni Karim o'zining 14 asrlik tarixi davomida qanchadan-qancha mamlakatlar va allomalar taqdirida tutgan o'rni badiiy ta'sir sarchashmalari va nufuzi tufayli chuqur ilmiy va diniy tahlil va tadqiqotlarga sazovordir. Qur'on mavzulari islom dinini qabul etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy oqidayu an'analar bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Islom dini va mahalliy urf-odatlar to'qimasi asosida o'zbek adabiyoti va ilmining shoh asarlari yaratiladi».[1]

Qur'on g'oyalarining adabiyotga ko'chishi tasavvuf ta'limotining xalq orasida keng yoyilishi uchun zamin hozirladi. Boshqacha aytganda, she'riyatda yashirin ma'nolar, tasavvuf tushunchalariga mo'ljallangan alohida til paydo bo'ldi, «lison ul g'arib» usulida yozilgan ruboiylar ko'paydi. Endi adabiyot tasavvufga xizmat qiladigan illyustrativ material bo'lib qolmay, balki o'zi tasavvuf g'oyalarini baralla targ'ib eta boshladi, aniqrog'i, tasavvuf g'oyalari she'riyat g'oyalariga aylandi.[2]

Hadislar. Tasavvuf ta'limotining islomiy manbalaridan yana bir hadislaridir. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti, yashash tarzi, oila va jamiyatda tutgan o'rni, aytgan so'zlari, davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli, pandu-nasihatlari, fikr-mulohazalari tasavvufda Qur'ondan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Payg'ambar hayoti va faoliyati islom dinidagi har bir kishi uchun ibrat namunasi hisoblanib, musulmonlar o'z hayotlarida, oila va jamiyatda yuzaga kelgan har bir muammoli vaziyatda payg'ambar sunnatlariga mos ravishda harakat qilishni shart deb bilishgan. Shuning uchun payg'ambarning oilada va sahobalar oldida aytgan so'zlari, fikr-mulohazalarida aks etgan hadislar xalq orasida ko'rsatma sifatida tarqalib ketgan va milodiy VIII asr o'rtalarida ularni to'plashga qiziqish kuchaygan. Manbalarda ko'rsatilishicha, VIII asrning o'rtalaridan boshlab g'oyatda rivojlanib ketgan hadislar bilan keyingi ikki-uch asr davomida to'rt yuzdan ortiq mualliflar shug'ullanganlar. Hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadis ilmida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Chunonchi, avvallari hadisshunos olimlar o'z asarlariga o'zlari eshitgan hadislarini tanlab (toifalarga bo'lib tartibga solmay) o'tirmay, qatorasiga kiritaveradilar. IX asrga kelib esa ko'plab muhaddislarning sa'y-harakati bilan hadislar boblarga va toifalarga bo'linib, ularning to'g'ri va ishonchli (sahih)lari alohida ajratilib, yaxlit bir to'plamlar yaratildi. Bu borada ko'plab yutuqlar qo'lga kiritilganligi uchun IX asr hadis ilmining rivojida «oltin davr» hisoblanadi. Chunonchi, butun islom dunyosida eng nufuzli manbalar, deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (assahiyh as-sitta) mualliflari ham, asosan, mana shu asrda yashab ijod qilganlar. Bu borada dastlab yuksak faoliyat ko'rsatgan imom Ismoil al-Buxoriy (810-869), imom Muslim ibn Hattot (819-874) kabi mashhur muhaddislar o'zlarining butun islom olamiga mashhur hadislar to'plamlarini yaratdilar. Hadislarini maxsus boblar va bo'linmalar asosida to'plab, kitob yozish kabi sharaflari ishni ushbu allomalar boshlab berdilar. Ushbu muhaddislarga erishib asar yaratgan imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817-888), imom Ahmad an-Nasabiy (830-915), imom ibn Mojjal al-Qazviniy (834-886) kabi mashhur olimlar ham as-Sahiyh (bu asarlar «As-Sunan» nomi bilan ham yuritiladi) nomi bilan asarlar yaratib, hadis ilmining rivojiga katta hissa qo'shadilar. Yana shunisi diqqatga sazovorli, mazkur oltita muhaddisning deyarli hammalari O'rta Osiyo zaminidan chiqib ijod qilgan olimlardir. Yuqorida

qayd etib o'tilgan fikrlar hodisalarning ham xalq ijtimoiy hayoti, xususan tasavvuf ta'limotida eng muhim g'oyaviy manbalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Qur'on va hadislar islom olamining yo'l ko'rsatuvchi mayog'i ekan, uning insonni ma'naviy poklikka yetaklovchi, inson ruhini kamol toptirishga qaratilgan unsurlari ham borki, quyida shu istilohlar to'g'risida fikr yuritamiz.

So'fiylar aqliy mushohada ortida tag'in bir mushohada bor, deb hisoblashar, uni ilmi g'ayb deb atashardi. Faqat ilmi g'ayb vositasida asror ochilar, shu yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsa ilmi asror deb atalardi. Tashqi tuyg'ular vositasisiz mantiqiy qonunlarni bilib bo'lmaganidek, ilmi g'ayb ochadigan narsalarni mantiq ocholmasdi.[3]

Tasavvufga bag'ishlangan asarlarda kamolga yetgan so'fiylar ladun ilmidan bahramand bo'lishi, bunday kishilarni doimo e'zozlash lozimligi, ularni malomat qilish gunoh ekanligi uqtiriladi. G'azzoliyning fikricha, «Balki ulamolardin ul kishi afdini islomga taalluqi bor. Ilmni kishidan o'rganmoqqa hojati bo'lmay, o'z zotidin ilmi laduniy birla bilg'ay, bu martaba nihoyati dushvordur. Bas, bilgilki, anbiyo va avliyolarni kashf va darajalariga tasdiq qilg'il. Bu toifa mudbir holidan ogoh bo'lmoq birla avliyoyi zul ehtiromlarga e'tiqodingni botil qilmag'il. Ul kishikim, ilmga va ulamolarga ta'na va malomat tilini buribdur, albatta, dunyo va oxiratdin benasiblik nishonasidur.[4]

Zikr. Qur'oni Karimda musulmon kishi bajarishi lozim bo'lgan amallardan biri sifatida zikrga alohida e'tibor berilgan. Zikrning tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, uning Qur'oni Karimda va ko'plab tasavvufiy adabiyotlarda asosiy unsur sifatida tilga olinishi sababi zikrning asl mohiyatini anglab olish uchun manbalarda unga berilgan ayrim ta'riflar bilan tanishib chiqishimiz lozim bo'ladi. «Tasavvuf lug'ati»da unga shunday ta'rif beriladi:

«Zikr so'zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmaslik ma'nolarini anglatadigan arabcha bir kalima. Tasavvufda bu so'z g'aflat va isyon esdan chiqarishning ziddi o'rnida tatbiq etilgan».

Tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, zikr so'zi Qur'oni Karimda 254 marotaba takrorlangan ekan. Tasavvuf tariqatlaridagi zikr jarayonlari Qur'ondagi «Ey mo'minlar, Allohni ko'p zikr qilinglar!» («Ahzob» surasi, 41-oyat), «Ollohni ko'p zikr qilinglarki, shoyad najot topursiz» («Jum'a» surasi, 10-oyat) kabi hukmlar ta'sirida yuzaga chiqqan. Zikr majlislarida Allohni yod aylashning uch yo'li bo'lgan: istig'for, salovat va asmoi sab'a (Allohning yetti ismi va ularni zikr etmoq).

Zikr tasavvufdagi har bir tariqatda, har bir tasavvuf ahlining nazdida – barcha qoida, usul va odoblarning boshidir. Tariqat pirlari va muridlarning zikr foydalari haqidagi umumiy qarashlari taxminan bunday bo'lgan: zikr – shaytonga qarshi eng o'tkir yarog'-quvar; Ollohning roziligi va mehriga erishtirar; qalbdan g'am, qayg'u va g'ussalarni haydab, dilga quvonch, farah va kenglik bag'ishlar; tafakkur va ma'rifatning yuksalishini ta'minlar; har turli yomonliklarning ildizini quritib, xato va gunohlarning oldini olar...

Zikr – faqat Allohni yod aylash, uning go'zal ismlarini eslash emas, balki dil, fikr va tuyg'uni Allohga yo'naltirish, Alloh ila mukammal bir shuuriy, zehniy aloqa o'rnatishdurki, bu salohiyat hammaga ham nasib etavermagan, ajratilmagan: biri – «zikri omma», ikkinchisi – «zikri xos». Zikri omma savobni qo'lga kiritmoq niyati ila amalga oshirilib, unda zokirning tabiatida yomon xislatlar, aytaylik, kibr, g'urur, riyo, hirs, ta'ma, g'azab, makr kabilar batamom, ya'ni tag-tugi ila barham topgan bo'ladi. Xoslarning zikri buning aksi: unda nafs tamoman mag'lub etiladi va qalb ma'rifat, muhabbat nurlari ila yorishib, tilda ham, dilda ham Alloh

ishqidan boshqa hech vaqo qolmaydi. Ammo bunday ulug'hon sohibi bo'lmoq uchun qat'iy intizom, sabr va ixlos bilan zikrga berilishi talab etilgan».[5]

Tasavvuf asarlarida zikrning musulmon kishi tomonidan bajariladigan amallarning eng savobli, eng xayrlisi ekanligi, uning hatto jihod, zakot, xayr-ehsondan ham yuksak darajada turishi ta'kidlanadi. Go'yoki tahorat vujudni poklaganidek, zikr ham inson ko'nglini poklaydi. Inson Allohni ko'p zikr qilish bilan qalbini g'uborlardan, yuqorida qayd etilganidek, kibr, riyo, manmanlik kabi bir qator chirkinliklardan tozalaydi. Alloh zikri bilan band bo'lgan qalbga shayton yo'l topa olmaydi, hayotdagi nopok narsalarni unga go'zal tarzda ko'rsata olmaydi, nomaqbul ishlarga rag'bat, moyillik uyg'ota olmaydi. Tinimsiz zikr bilan mashg'ul bo'lgan kishi ko'nglida haqiqiy ilohiy ishq hosil bo'ladi va Alloh ishq bandani komillikning yuqori pog'onalariga ko'taradi.

Muhammad alayhissalom nuridan so'ng lohida olami vujudga kelgan. Lohida olami ilohiyot olami demak, undan keyin jabarut, ya'ni buyuklik olami va uning ketidan malakut olami-farishtalar olami yaratildi. Lohida Haq zotini ifodalasa, jabarut nurlardan iborat olamdur, malakut esa latif nurlardan tuzilgan olam. Ammo aytib o'tilgan olamlarda shakl-a'raz yo'q. Bu xususiyatning jismlar olami bo'lishi mulk olamiga xos. Mulkiyat olamini shahodat olami yoki olami nosut ham deyilar. Bulardan tashqari, ayrim nazdiyotchilar badan olami, ya'ni inson olamini ham alohida olam sifatida qayd etganlar. Chunki inson olami sag'ir (kichik olam) sifatida olami kabir (katta olam) deb nomlanadigan yuqori olamlarning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Mazkur qarash insonning ikki asosdan iboratligini yana bir karra tasdiqlaydi.[6]

Yuqoridagi ta'rif va izohlardan ma'lum bo'ladiki, Alloh o'zini tanitish maqsadida dastlab Muhammad nurini va o'z navbatida shu nur qoldiqlaridan turli olamlarga mansub bo'lgan maxluqotlarni yaratdi. Vujudni tuproqdan yaratilgan insonning ruhi asli pokiza ekanligi, shuning uchun bu olamda u tinimsiz ibodat, riyozat chekish orqali poklana borishi va asl makoniga pok holda qaytishi lozimligi tasavvuf adabiyotida qayta-qayta uqtiriladi. Tasavvuf adabiyotida insonning mudom ma'naviy komillikka, ruhoni poklikka intilishi ruhning o'z asliyatiga pok holda qaytishiga sa'y-harakat qilishi deb izohlanadi.

Tavba. Tasavvuf ta'limotida muhim o'rin tutuvchi unsurlardan biri tavba hisoblanadi. Bunda kishi o'zining jamiyat hayotida tutgan o'rniga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi, xulq-atvori, xatti-harakatidagi salbiy jihatlarni ko'ra bilishi, shu vaqtga qadar qilgan ishlaridan pushaymon bo'lishi va ularni takrorlamaslikka qat'iy qaror qilishi tushuniladi.

Zuhd va tavakkul. Zuhd tasavvufda o'tkinchi dunyo go'zalliklari, mol-dunyo, noz-ne'matlarga aldanib qolmay, nafs istaklaridan voz kechish, Allohdan tashqari narsalardan ko'ngil uzish ma'nolarini ifodalovchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Qur'oni karimning «Luqmon», «Ankabut», «Kahf», «Muzammil», «Oli Imron», «Hadid» suralarida va bir qator hadislarida nafsiga nisbatan zohid bo'lish lozimligi qayd etiladi. Tavakkul esa bandaning faqatgina Allohga suyanishi, o'z ehtiyojlarini faqat allohga aytishi va undagina madad kutishi ma'nolarini bildiradi. Allohga tavakkul qilgan bandani Allohning o'zi qo'llashi, uni halol taomlar bilan rizqlantirishi Qur'oni Karimning qator suralarida bayon qilingan.

Riyozat. Qur'oni Karim va tasavvuf ta'limotida riyozatga alohida urg'u beriladi. «Oz yemoq, oz uxlamok va oz gapirmok ta'limotini beruvchi va nafsning orzularini tark etib, ozaytirib, ko'proq toat-ibodat bilan nafs-u shaytonning orzulariga qarshi kurashish ma'nosidagi «Majohada» tushunchasi ham tasavvufda oyat-u hadislariga asoslangandir».

Biz yuqorida tasavvufning asosini tashkil qiluvchi Qur’oni Karim va unda ilmi laduniy, zikr, olamning paydo bo’lishi, tavba, zuhd va tavakkul, riyozat kabi masalalarning berilishi, hadislar to’g’risida fikr yuritdik. Tasavvufda bulardan tashqari, Muhammad alayhissalom va sahobalarning yashash tarzi haqidagi fikrlar ham borki, ular mazkur ta’limotning islomiy manbalari hisoblanadi. «Alloh taolo Payg’ambarimizga (s.a.v) ulug’ xulq, go’zal odob ato etgan ediki, sahobalar har bir ishda Rasulullohdan (s.a.v.) ibrat olishga oshiqishar, hatto bu borada musobaqa qilishar edi. Bunday hol ular orasida tabiiy bir intilishga aylangan, hech kimga erish tuyulmagan, hech kim bundan uyalmagan ham. Hammalari yaxshilik bilan bir-birlarining ko’ngillarini ovlab, Alloh taoloning roziligini istashar, Payg’ambarimizni (s.a.v.) xursand qilishga shoshilishar edi»

Payg’ambarimizning o’zini tuta bilishi, rahmdilligi, yashash tarzi, atrofdagilarga munosabati, o’z fikrlarini yumshoq ohangda bayon qilishi atrofdagilarning doimiy e’tiborida bo’lib kelgan. Payg’ambarning xatti-harakati va xulq-atvori islom dinidagi har bir kishi uchun namuna bo’lib kelgan. Tariqat pirlaridan biri Umar Foruh Saydo al-Jazariy Payg’ambar va sahobalar odobi haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan:

«Islom dini odob tamoyillarini ham eng go’zal va mukammal tarzda ko’rsatadi. Inson ota-onasiga, ahli ayoliga, farzandlariga qanday muomalada bo’lishi kerak – bu masalalarga oydinlik kiritdi.

Payg’ambar (s.a.v.) va sahobalar hayot tarzi haqida tasavvufiy adabiyotda keng ma’lumot berilganligi bois yuqoridagi fikrlar bilan cheklanamiz.

Tasavvuf ta’limotining ijtimoiy mohiyati va g’oyaviy manbalari bo’yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Tasavvuf tushunchasiga manbalarda turlicha ta’rif berilgan bo’lsa-da, ular mazmun jihatidan umumiy bir yaxlitlik hosil qiladi.

Tasavvuf ta’limotining paydo bo’lishi bevosita islom dini bilan bog’liqdir. Uning kelib chiqishini g’arb mistitsizmi bilan bog’lash yoki boshqa dinlardan islom diniga o’tgan degan qarashlar bir yoqlama bo’lib, ular ilmiy asosga ega emas.

Musulmonlarning muqaddas kitobi – Qur’oni Karim va undagi insonni ma’naviy poklikka undovchi fikrlar tasavvuf ta’limotining asosini tashkil qiladi. Undagi ilohiy ilm, zikr, olam, tavba, zuhd, riyozat kabi masalalar tasavvufning asosiy mavzulari, tamoyillari hisoblanadi. Tasavvufdagi maqomlarning belgilanishida ham shu masalalar hamda Payg’ambar (s.a.v.) bilan bog’liq holatlar e’tiborga olingan.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf islom dinining o’zagi bo’lib, uning mohiyatini o’zlikni anglash orqali Haqni tanish, nafsni jilovlash, Payg’ambar (s.a.v.) xulqi bilan ahloqlanishi va shu yo’l bilan Alloh roziligiga erishish, loyiq va maqbul bo’lishdan iborat. Tasavvufning asosini esa Qur’oni Karim va hadislar, Rasululloh (s.a.v.) va sahobalar hayotlari tarzi tashkil etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Кароматов Ё. Куръон ва ўзбек адабиёти. Тошкент, фан, 1993, 4-бет.
2. Комилов Н. Тасаввуф ва бадийий ижод. – «Ёшлик», 1991, 8-сон, 76-бет.
3. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. -Тошкент: Ёафур Ёулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 142-143- бетлар
4. Раззолий Зайниддин Мукаммад. Қимийи саодат. -Тошкент: Камалак, 1995, 33-бет.
5. Тасаввуф луғати – Т.: Тафаккур. 1998, № 2, 92-93 бетлар.
6. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ақлоқи. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996, 42-43 бетлар

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).